

### **Maxsudbekova Farog‘at Izzatbek qizi**



2010-yil 2-iyulda Xorazm viloyati Xiva tumanida tug‘ilgan. U Prezident ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi Ogohiy nomidagi ijod maktabining 8-“A” sinf o‘quvchisi. Farog‘at yosh bo‘lishiga qaramay, ijodiy faoliyati bilan ko‘pchilikning e’tiborini qozongan. Uning she’rlari Respublikamizning nufuzli gazeta va jurnallarida, jumladan, “Tong yulduzi”, “Ezgu so‘z” kabi nashrlarda muntazam chop etilmoqda.

Farog‘atning ijod mahsullari bir nechta antologiyalarda, jumladan, “Successful Generation” va “Raven Cage Zein” kitoblarida yoritilgan. Yosh ijodkor she’riyatga bo‘lgan cheksiz muhabbatni va izchil ishlari bilan tanilgan.

Hozirda u o‘z shaxsiy ijodiy kanaliga ega bo‘lib, ushbu qanalda 100 dan ortiq ijodkorlar bilan o‘z she’rlarini bo‘lishmoqda. Kanal uning ijodiy ishlari va adabiyotga bo‘lgan ehtirosini kengroq auditoriyaga yetkazish uchun muhim vositaga aylangan.

Shuningdek,Muhammad Rizo Og‘ahiy Erniyozbek og‘li uchun yozgan maqolasi Janubiy Koreyada nashr qilingan. Bu maqola uning adabiyotga bo‘lgan hurmatini va o‘zbek she’riyatining xalqaro miqyosdagi e’tirofini yanada mustahkamladi,va hozirda ham ijod bilan shug‘ilanmaoqda.

### **HAYOT KINO**

Senariysi chalkash tuzilgan,  
Hamma o‘z rolini o‘zicha o‘ynar.  
Kimningdir hayoti tekis tizilgan,  
Kimdir esa nuqul boylikni ko‘zlar.

Hayot kino  
Ashka bunda yo‘q,  
Qolib ketgan huu ilk qismida.  
Unga qarashyapdi reklama kabi,  
Sof sevgi qolmagan mening nazdimda.

Hayot kino  
Yaxshilikka qaytmas yaxshlik,  
Bu cho‘pchakdek bo‘lib ham ketdi.  
Har yamog‘ingdan topishar teshik,

Odamzod hasaddan o'zlogin yedi.

Hayot kino

Niqobingni yechsang bo'lmaydi,  
Asl yuzing faqat pinhona saqla.  
Baribir ularning ko'ngli to'lmaydi,  
Yaxshisi, o'zingning rolingni bopla.

Hayot kino

Boylarning bo'gzini qisadi zanjir,  
Faqirlar non uchun axlat titishar.  
Bu zarlar sen bilan ketmas axir bil,  
Miskinlar ochlikdan jondan kechishar.

Hayot kino

Vatan deb ming jonlar bo'lgan xomtalash,  
Qon yeg'lar uyoqda mushtipar ona.  
Boylik izlab kimlar badanin sotar,  
Bilishmas qay yo'lga bo'lar ravona.

Hayot kino ssenariysi chalkash tuzilgan.